

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Abduvaliyev	
Farg'ona vodiysi hududida uy parrandalari gelmintlarining o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar	648
M.R.Xolikulov, S.B.Xatamova	
Farg'ona shahar tabiiy yer osti buлоq suvlарining gidroekologik holati.....	652
M.X.Akbarova, M.A.Davidov, Z.N.Jo'rayev	
Farg'ona vodiysi florasiда tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining hayotiy shakllari tahlili	657
T.Rahimova, M.X.Akbarova, S.Usmonov, O.A.Turdiboyev	
Pyatayeva Anna Danilovna (1906 – 1981)	662
M.X.Akbarova, O.Turdiboyev	
<i>Scutellaria glabrata</i> (Lamiaceae) lektotipifikatsiyasi	667
M.X.Akbarova, Turdiboyev, R.Y.Ruzimatov, M.R.Xolikulov	
Xamidov G'ulom Xamidovich (1936–2024)	670
M.A.Davidov, R.E.Soibnazarov	
Bo'yoqbop drok-(<i>Genista tinctoria</i>) o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari	674
G.N.Shokirova	
Agrotexnik usullar samaradorligini aniqlash	677
I.P.Urinboev, F.P.Jumaboeva	
Oпылление и плодоношение цветков вида липа (<i>Tilia tomentosa</i>), интродуцированного в ферганскую урбинофлору.....	682
M.A.Davidov, I.P.Urinboev	
Опылление и цветение видов липы во флоре города Ферганы.....	686
M.A.Masodiqova	
Eribidae oilasi vakillari va ularning zararkunandalik darajasi	689
M.A.Masodiqova	
Eribidae oilasi (<i>Limantriya dispar</i>) turining toksonomiyasiga oid o'zgarishlar va zararkunandalik darajasi	692
V.Mahmudov, B.Y.Hamraliyev	
Shohimardonsoy havzasining noyob dorivor o'simliklari, ularni muhofaza qilish.....	695
M.Q.Asadova	
Poliploidiya va uning boshoqli o'simliklar seleksiyasidagi ahamiyati	698
M.M.Mamajonova, V.Mahmudov	
Farg'ona viloyati sharoitida dorivor <i>Cassia angustifolia</i> L o'simligining introduksiysi va istiqbollari	701
S.M.Xaydarov, F.N.Mingboev	
Akvakultura uchun ankistrodesmus mikrosuvu'tini Chu-13 ozuqa muhitida biomassasini orttirish	703
S.M.Xaydarov, B.E.Nishonov, F.N.Mingboev	
Baliqchilikda muxim ahamiyatga ega bo'lgan <i>Daphnia magna</i> biomassasini oshirishda mikrofitlardan foydalanish	706
Z.A.Yusupova	
Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi florasi	709
Z.A.Yusupova, F.B.Sayramov	
Mavrak turlarining xalq tabobatida hamda tibbiyotda qo'llanilishi.....	712
Z.A.Yusupova	
O'zbekistonda uchraydigan Lamiaceae turlarining dorivor salohiyati va bioekologik xususiyatlari	717
M.P.Yuldasheva	
Farg'ona vodiysi kanallari algoflorasining taksonomik tahlili (JFMK, SHFMK, KFMK lari misolida)	721
M.K.Aсадова	
Нектарозапас медпродуктивных угодий южных областей Узбекистана и некоторые теоретические основы их использования	726
B.Махмудов, М.К.Жабаралиева	
Био-экологические свойства лекарственных растений ферганской долины применяющие при заболевании бесплодия	729

**UO'K: 633.51: 633.15: 632.34****AGROTEXNIK USULLAR SAMARADORLIGINI ANIQLASH****ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ АГРОТЕХНИЧЕСКИХ МЕТОДОВ****DETERMINING THE EFFECTIVENESS OF AGRICULTURAL METHODS****Shokirova Gavxarxon Nazig'ulomovna** 

Farg'ona davlat universiteti botanika, bioteknologiya va ekologiya kafedrasи katta
o'qituvchisi q.x.f.f.d. PhD

Annotatsiya

G'o'za ekib o'stirishda odatda ishlataladigan ayrim agrotechnik tadbirlarning g'o'za tunlamiga qay darajada ta'sir etishi hamda uni zararkunandaga qarshi qay darajada amaliy ishlatalish mumkinligini aniqlashga bag'ishlangan.

Ilk bor kuzgi shudgor, sho'r yuvish va yaxob suvini berish, kultivatsiya, sug'orish, chilpish va defoliatsiya o'tkazish tadbirlari o'rganildi. Tadqiqot va kuzatuvlardan olingan natijalardan quyidagi asosiy qilindi.

Аннотация

Целью исследования является определение степени воздействия на хлопкового долгоносика тех или иных агротехнических мероприятий, обычно применяемых при выращивании хлопка, и в какой степени их можно применять против вредителя.

Впервые изучены мероприятия по зяблевой вспашке, солнечному промыванию и орошению, культивации, орошению, мульчированию и дефолиации. Из результатов, полученных в результате исследований и наблюдений, основными были следующие:

Abstract

The purpose of the study is to determine the degree of impact on the cotton weevil of certain agrotechnical measures usually used in cotton cultivation, and to what extent they can be used against the pest.

For the first time, measures for autumn plowing, salt washing and irrigation, cultivation, irrigation, mulching and defoliation were studied. Of the results obtained as a result of research and observations, the main ones were the following:

Kalit so'zlar: chilpish, insektitsid, peperat, kanibalizm, ferment, additivlik, sinergizim.

Ключевые слова: chilpish, инсектицид, пепарат, канibalизм, фермент, аддитивность, синергизм.

Key words: chilpish, analogue drugs, insecticide, drug, cannibalism, enzyme, additivity, synergism.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlarida paxta yetishtirib kelinadi. Jumladan, «Amerika qo'shma shtatlari, Xitoy, Avstraliya, Isroil, Hindiston va Braziliya kabi 80 dan ortiq mamlakatlarida jami 32-33 mln hektar maydonda g'o'za ekilib, har yili 25 mln tonnaga yaqin paxta toiasi yetishtiriladi». Hozirda jahon qishloq xo'jaligidagi paxta va boshqa ekinlar yetishtirib, sifatli va mo'l hosil olish uchun zararkunanda hasharot va kasalliklarga qarshi kurashda biologik, kimyoviy, agroteknik usullarni qo'llash dolzarb bo'lib qolmoqda

NATIJA VA MUXOKAMA

G'o'za ekib-o'stiriladigan yerni shudgorlash, ayniqsa kuzda, ko'p ijobiy fazilatlar bilan birga (er unumdarligini oshirish, begona o't va so'ruvchi zararkunandalarga barham berish, tuproqda mikrobiologik jarayonlarni faollashtirish va b.), g'o'za tunlamining qishlab qolgan zahirasini maksimal darajada ozaytiradi.

O'simliklarni xammaxo'r zararkunanda – g'o'za tunlamidan (*Helicoverpa armigera* Hb.) himoya qilishning o'ziga xos usul va vositalar ahamiyati katta ekanligi qishloq xo'jaligi xodimlari va qishloq axolisaga juda yaxshi ma'lumdir. Xozirgi texnika va ixtisoslashgan ilmnинг yuqori darajada taraqqiy etganligiga qaramay, g'o'za tunlami bilan zararlanadigan ekinlar, jumladan: g'o'za, makkajo'xori, pomidor va b. (1-jadval) yillar mobaynida bu hasharot sababli juda ko'p hosilni yo'qtayotgani barchaga ayon. Farg'ona va boshqa viloyat fermerlari va dehqonlari bunday xalokatli holat bilan kurashib kelmoqdalar.

1-jadval

G'o'za tunlami qurtlarini istemol qiladigon ozuqalar ko'rishi

Laboratoriya sharoitida, 2019-2020 yy.

Yil lar	G'o'za shona gul, ko'sak)	Zararlaydigan ozuqa turi										
		Makkajo'xori				Pomidor	Loviya	No'xott	Mosh	Беда	Pechakk	
		doni	So'tao' zagi	Sul toni	So'ta to'p guli					bargi		
2018	+++	+++	++	+	+	+++	++	+++	++	+	+	0
2020	+++	+++	++	+	+	+++	++	+++	++	+	+	0

+++ - eng yaxshi ko'radigan ozuqa,

++ - xush ko'radigan ozuqa,

+ - majburlikdan iste'mol qilinadigan ozuqa,

0 – oziqlanmaydi.



1



2



3



4



5

Rasm. G'o'za tunlami – zararkunanda. 1 – kapalagi makkajo'xori poyasida, 2 – so'ta popugiga qo'yilgan tuxumlar, 3 – qurt zararlagan so'ta, 4 – g'o'za bargi ustiga qo'yilgan yakka tuxum, 5 – shikastlangan g'o'za shonasi.

Bu xolatning sababi, bir tomonidan – g'o'za tunlami biologiyasining murakkabligi hamda ekologik sharoitga yuqori darajada moslashib olganligi bo'lsa, ikkinchi tarafdan – bu xasharotga qarshi kurashning murakkabligi, shuning uchun faqatgina kurash usul va vositalarining mavjudligi qo'shimcha malakali mutahassislarga ehtiyoj katta ekanligidadir. Bu maqolada g'o'za tunlamiga (ko'sak qurtiga) qarshi kurash tizimining atigi bir usuli haqida – qo'shimcha sarf xarajat talab etmaydigan, o'simlikni rivojlantirib, zararkunandaga noqulay sharoit yaratishga qaratilgan agrotexnik usulning ayrim xususiyatlari haqida gap tushuncha berishga qaror qildik. Maqoladagi ayrim ishlanmalar va tekshiruv natijalari muallif izlanuvchilar ish dasturlarini bajarish jarayonida olining va taxlit qilingan.

Agrotexnik usuli har bir ekin turlariga ko'ra soni, maqsadi va davom etishi farqlab berilishi mumkin, ammo shudgor respublikamiz iqlim va tuproq sharoitida, qarab ishlov berish eng kuzda xam baxorda xamma yerga axamiyatli xisoblanadi, Chunki birinchi navbatda, tuproq unumdorligini va xosil samaradorligini oshirishda eng maqsadga muvofiq usullardan xisoblanadi. Tuproq strukturasini yaxshilashda, undagi eng qimmatli gumus miqdorini oshirishda, tuproqdag'i ijobjiy mikrobiologik yo'naliishlar, namlikni saqlab qolishda kerakli sifatlari usuldir. Shu bilan birga turli bo'g'imoyoqli hayvonlarning rivojlanishining izdan chiqaradi (Uspenskiy, 1970; Xo'jayev, 2015). Begona o'tlarning ko'plab qirilib ketishida ham kuzgi shudgorning ahamiyati yuqoridir. Bu sohada eng so'nggi chop etilgan ilmiy maqolalardan birida (akad. Q.Mirzajonov va R.Raxmonovlar, 2016) ko'p va kamyillik begona o'tlar bilan kuchli zararlangan yerlarni ozod qilishda shudgorni turli chuqurlikda va tizimda o'tkazish kerakligi tavsiya etilgan.

Shudgorni zararkunanda xasharotlarga qarshi kurashdagi ahamiyati xaqida mashxur entomolog olimimiz – prof. Vladimir Vladimirovich Yaxontov o'z vaqtida shunday deb yozib ketgan edilar: "Shunday hasharotlar borki, ularga qarshi kurashda oddiy shudgorning ahamiyati beqiyosdir, misol uchun g'o'za tunlami..." (Ekologiya nasekomyx, 1969). Shudgor o'tkazish natijasida tuproqda ostida qishlovda yotgan tunlam inlari buzilib g'umbak va kapalaklar pachoqlanib o'lib ketishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, ko'pgina ashaddiy zararkunandalarning (shira, trips, o'rgimchakkana, oqqanot, qandala) zahiralari qirilib ketishi anniq dalillardir. Umuman,

BIOLOGIYA

turli biotop va senozlarda g'o'za tunlamining qishlovdagagi g'umbaklarining zichligi e'tibordan chetda qolmagan. Toshloq tumani sharoitida olib borilgan mahsus kuzatuv tajriba va nazoratlar shunday natija ko'rsatdiki, zararkunandaning eng ko'p zahirasi pomidor va makkajo'xori ekib yetishtirilayotgan yerlarda, hamda g'o'za ekilib shudgor qilinmagan yerlarda kuzatiladi (2-jadval).

2-jadval

**G'o'za tunlamining qishlovga qolgan g'umbaklarini zichligi biotoplar bo'yicha
Far.vil., Bog'dod tumani, 2020 y.**

Tadqiqot o'tkazilgan yillar	G'T ning g'umbaklari dona/m2								
	Uvat larda	Xaydalgan yerda	Makka jo'xori	Kuzgi bug'doy	Pomidor	Qovoq	Qalampur	Kart oshka	Yer yong'oq
	E k i l g a n p a y k a l d a								
2018	0,2	0	0,74	0,32	1,33	0,3	0,1	0	0,87
2019	0	0	1,2	0,17	0,97	0,2	0	0	1,1
2020	0,32	0	0,61	0,42	1,1	0	0	0,17	0,77

G'o'za tunlamining qishki avlodi hattoki kuzgi bug'doy ekilgan paykallarda ham uchraydi; oz miqdorda dala atrofidagi uvatlarda ham G'o'za tunlamining g'umbaklarini uchratish mumkin.

Jadvaldan natijalaridan ko'rinish turganidek, qishning boshida (dekabr) g'o'zadan keyin shudgorlangan paykalda tunlam g'umbaklari aniqlanmadи va topilmadi va shu yerda g'o'za tunlamining feromon tutqichlariga kapalaklar soni kech muddatlarda tutila boshladi.

G'o'zani oziqlantirish. Barchaga ma'lumki, o'z vaqtida va turli asosga ega mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirilmagan o'simlikdan ko'p hosil yetishtirish va olish mumkin emas. Agrokimyo kartogrammasiga muvofiq NPK o'g'itlari bilan oziqlantirilgan g'o'za zararkunanda va kasalliklarga bardoshli, shikastlangan hosil tuganaklari o'rnini bosish imkoniyatlariga ega (kompensatsiya etish) bo'lib o'sadi. Misol uchun, uncha ahamiyat berilmaydigan kaliy o'g'itlari bilan oziqlantirilmagan g'o'za vilt va boshqa kasalliklarga bordoshli bo'lmaydi.

Shudgor yuvish hamda yahob suvini berish. Qishning ohirlarida sho'rlangan yerlarda pol olinib bir necha kun mobaynida suv bostirib qo'yiladi. Bu agrotexnik tadbirning ahamiyati keng va katta bo'lib, u shu yerlarda qishlab qolgan zararkunandalar sonini kamaytirishga ham e'tibor-lidir. Bizlar olib borgan mahsus tajribalar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, 48 soat mobaynida mo'tadil haroratga ega bo'lgan suv ostida yotgan 16 ta G'T g'umbaklarining barchasidan kapalaklar uchib chiqmadi, ya'ni ular nobud bo'ldi. Qish paytida suvning harorati ancha past bo'lishini inobatga olsak, samara yanada yuqori bo'lishini tasavvur qilsa bo'ladi.

Ekinlarni sun'iy sug'orish va kulbtivatsiya o'tkazish. Ekinlarni sug'orish va qatorlatib kulbtivatsiya o'tkazish ham G'o'za tunlami va boshqa zararkunandalarga qarshi kurashning bir usullaridandir. Bunga quyidagilar sababchidir: suvsizlanmagan, chanqamagan o'simlik ko'pchilik noqulay vaziyatlarga chidamli bo'lib, uni shikastlangan zararkunandalarning zararli ta'siri qisman sezilmay qoladi. Ikkinchidan, suv bilan to'yingan o'simlikka sepilgan har qanday insektitsid (ayniqsa sistemali xususiyatlarga ega bo'lganlari), yuqori samara ko'rsatadi. Kulbtivatsiya yordamida esa, mexanik ta'sir natijasida ko'pgina zararkunandalarning ta'siri pasayadi.

G'o'zani chilpish. Mahsus nazoratlarimiz orqali aniqlanganki, G'T g'o'za shonalash davriga kirganidan keyin (odatda iyun oyining birinchi yarmi) unga tuxum qo'ya boshlaydi. Tuxumining asosiy qismi (100% gacha) o'simlikning yumshok yangi barglarining tepe tomoniga qo'yiladi. Bularidan 73-80% novdalarning o'sish nuqtasi qo'yiladi. Shunday ekan, agarda g'o'za parvarishiga qarab, uni chilpish ("chekanka" qilish) G'T kapalaklari qiyg'os tuxum qo'yayotgan paytga to'g'ri kelsa (misol uchun, iyulning 3-o'nkunligi-avgustning boshi) uzib ketilgan o'simliklarning o'sish nuqtasi bilan zararkunandaning tuxum va yosh qurtlari ham xalok bo'lishi mumkin. Buning uchun, mahsus fartuk tutib uzilgan qismini yig'ib daladan olib chiqib tashlashi zarur. Buni quyidagi o'tkazilgan tajribamiz asosida aniqladik. Tajriba Toshloq tuman xo'jalik dalalarida 2020 yilning avgust birinchi o'n kunligida, tunlamning uchinchi avlodi rivojlanayotgan paytda o'tkazildi. Yaxshi rivojlangan va sug'orilgan g'o'za paykali bir qismigina tajriba uchun ajratildi. Har bir variant uchun 1 gektardan yer ajratildi. Bu dalada g'o'zani chilpish g'o'za tunlami qiyg'os tuxum qo'yib, birinchilaridan yosh qurt oolib chiqqa boshlagan edi. Nazorat variantida har 100 tup g'o'zada o'rtacha 20,6 dona tuxum va 5,6 ta qurt mavjudligi aniqlandi (3-jadvalga qarang). G'o'zani chilpish bir marta amalga oshirildi. Undan so'ng 15 kun davomida nazoratlar qayta amalg'a qilingan.

oshirildi. Tajriba 3 variantdan iborat bo'lib, birinchisida uzilgan o'suv nuqtalari shu yerga tashlab ketildi, ikkinchisida ishchi faktuklariga yig'ilib daladan olib chiqib tashlandi.

**Turli hil g'o'za chilpishning daladagi g'o'za tunlami zichligiga ta'siri
Tajriba Toshloq tumanida o'tkazilgan, g'o'za navi – "Sulton", 3-5 avgust, 2020 y.**

3-jadval

Variantlar	Chilpishga qadar har 100 o'simlikda tuxum va qurt		Chilpishdan keyin kunlar bo'yicha qurt soni, dona/100 o'simlikka, jami				Samaradorlik, % kunlar bo'yicha			
	tuxum	qurt	3	6	10	15	3	6	10	15
Fartuksiz chilpish	16,3	4,7	3,7	10,7	13,4	3,0	32,2	12,1	16,9	0
Fartukka chilpish	13,7	4,3	3,2	6,5	8,5	1,9	36,0	41,6	42,4	39,9
Nazorat (chilpimasdan)	20,6	5,6	6,5	14,5	19,2	4,1	-	-	-	-
Aartukka chilpishni nisbiy samarasi %	-	-	-	-	-	-	3,8	29,5	25,5	39,9

Uchinchi variantda g'o'za chilpilmadi-nazorat. Tajriba natijalaridan quyidagi hulosalarga kelish mumkin.

1. G'o'zani chilpish agrotexnik tadbiri, g'o'za tunlami qiyg'os tuxum qo'yayotgan muddatlarga to'g'ri kelsa, zararkunanda miqdorini ozayishi hisobiga anchagini samaraga ega bo'lish mumkin.

2. Chilpilgan o'suv nuqtalarini maxsus fartuklarga yig'ib dala tash-qarisiga olib chiqib tashlansa samaradorlik nazoratga nisbatan 36-42% ni tashkil etib, fartuksiz chilpishga nisbatan 29-39% oshiq bo'lishi mumkin.

G'o'zani chilpish agrotexnik tadbirining samaradorligi uni o'tkazish muddatlarini talabga muvofiq kelishi bilan bog'liq deb o'tdik. Buning ravshanligi o'tkazgan tajribamiz natijasida ayon bo'ldi (4-jadval). Uchta variantlardan tashkil topgan tajribada: chilpish erta (16-18.07) hamda mo'tadir – G'T qiyg'os tuxum qo'yish muddatda (26.07-18.08) o'tkazildi. Bu variantlar nazorat, ya'ni chilpish o'tkazilmagan paykal bilan taqqoslab o'rganildi.

Jadvaldan ko'rilib turibdiki, tajribaning ikkinchi variantida eng yuqori samaradorlikka ega bo'lindi (nazoratga nisbatan 37,5% biologik samara olindi).

G'o'zani chilpish samaradorligini uni o'tkazish muddatlari hamda g'o'za tunlami rivojlanishiga bog'liqligi

Toshloq tumani, To'xtaboyev Q.F.Y., "Sohibjon MMM", f/x, 2020 y.

4-jadval

№	Variantlar	Chilpish paytidagi tuxum va qurt zichligi (100 ta o'sim. nechta), dona	Zararkunandaning zichligi (o'rtacha 100 ta o'simlikka, dona)			Agrotadbirning samaradorligi, %
			6.08.	12.08.	20.08.	
1.	G'o'zani chilpish, erta muddatlarda o'tkazilgan	2/9 (16-18.07)	10/9	1/17	0/5	19,3
2.	G'o'zani chilpish G'T qiyg'os tuxum qo'yayotgan paytg'a to'g'ri kelgan	23/3*) (26.07-8.08)	11/6	2/11	1/8	37,5
3.	Nazorat (g'o'za chilpilmagan, 0,4 ga)	19/4 (26.07-8.08)	7/11	3/16	0/13	-

*) – 23-tuxum , 3-qurt

XULOSA

BIOLOGIYA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ko'sak qurti tomonidan zararlashga moyil paykallarda g'o'zani chilpish chorasi bиринчи galda o'tkazib, uni zararkunanda qiyg'os tuxum qo'yish muddatlariga o'tkazish kerak.

Qulay muddatlarda o'tkazilgan chilpish chora-tadbiri, g'o'za hosil-dorligiga yondashish bilan birga uni ko'sak qurtiga qarshi maxsus ishlov o'tkazishga hojat qoldirmaslik darajasigacha qo'shimcha yordam berishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Марзажонов Қ., Раҳимов Р. Бегона ўтларга қарши агротехник кураш чоралари //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – 2016. - №8. – Б. 35.
2. Очилов Р.О., Хўжаев Ш.Т., Ҳакимов А. Пахта толаси елимланишининг сабаблари ва унинг олдини олишга доир тавсиялар. Давлат кимё комиссияси, ЎзЎҲҶИТИ. – Тошкент, 2005. – 86.
3. Успенский Ф.М. Паутинный клещ и система приёмов борьбы с вредителями хлопчатника. – Ташкент: Фан, 1970. – 304 с.
4. Хўжаев Ш.Т. Ўсимликларнинг зааркунандалардан уйғунлашган ҳимоя қилишнинг замонавий усул ва воситалари. – Тошкент: "Навruz", 2015. – 552 б.
5. Хўжаев Ш.Т., Маматов К., Курязов Ш., Дурдиев К. Айрим агротехник чора-тадбирларнинг ғўза тунлами ривожланишига таъсири //Мақолалар тўплами. – Тошкент: Талқин, 2008. – Б. 35-40.
6. Хўжаев Ш.Т., Курязов Ш., Юсупова М. Ғўзани чилпиш ва қўсак қурти //Мақолалар тўплами. – Тошкент: Талқин, 2008. – Б. 40-44.
7. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487 с.
12. Алимухамедов С., Хўжаев Ш. Ғўза зааркунандалари ва уларга қарши кураш. – Тошкент: «Меҳнат», 1991. – 196 б.
13. Антропова Н.Д., Журавская С.А. Влияние аналогов ювенального гормона насекомых на вредителей хлопчатника //Тезисы докл. на Всес. совещание–семинар (10-11.06.1982 г.). – МСХ УзССР, 1982. – С. 28-31.
14. Ш.И. Маматожиев, М.А.Мирзабаева, Г.Н.Шокирова Влияние технологии допосевной обработки на содержание влаги в почве //Универсум:технические науки: научный журнал. – Москва, 2021. - №6(87). – С.46-49